

Xorijiy Tadqiqotchilarning Asarlarida Buxoro Voha Aholisi Etnik Tarkibining Bayon Qilinishi

*To‘rayev Anvar Ismoilovich*¹

Аннотация: Buxoro vohasida azaldan yashab kelayotgan aholining yashash hududi, tili, diniy e‘tiqodi, turmush tarzi ko‘plab mahalliy va xorijiy etnograf olimlar tomonidan o‘rganilgan va bugungi kunga qadar tadqiqot ishlari olib borilayotganligi tahlil qilib o‘tilagan. Buxoro vohasidagi aholining etnik tarkibining rangbarangligi bilan boshqa vohalardan farqlanib kelinganligi elshunos olimlarning asarlari orqali o‘rganildi.

Ключевые слова: Etnografiya maktab, qarluqlar, qipchoqlar, qang‘li, fors-tojik, o‘zbek va tojik, Markaziy Osiyo, milliy-hududiy chegaralanish, O‘rta Osiyoni, lo‘lilar, etnik tarkibi, diplomatik, siyosiy va iqtisodiy.

KIRISH

Vohaning etnografiyasi va etnik tarkibining ilmiy o‘rganilishi Buxoro amirligi hududiga XIX asrning birinchi yarmida sayohatchi, olimlar, harbiy, tarixchi va diplomatik vakolatxona vakillarining kirib kelishi bilan bog‘liq edi. A. Vamberi, N. Xanikov, A. Byorns, P.S Vasilyev, M.N. Galkin, D.N. Logofet va N.A. Aristov kabilar Buxoro amirligining etnografiyasiga taalluqli ma‘lumotlarni o‘z asarlari, kundaliklari va tadqiqot hisobotlarida yozib qoldirganlar.

Buxoro viloyati o‘zbek qabilalarining etnik tarkibi va tarixiga oid tadqiqotlar XX asning birinchi choragida o‘tkazilgan. Tadqiqotlarning asosiy qismi 1924-yilgi Markaziy Osiyoning milliy-hududiy chegaralanishi jarayoni sababli amalga oshirilgan. Aholini ro‘yhatga olishdagi ma‘lumotlar viloyat aholisi tarkibini va etnik jarayonni batafsil yoritib bermaydi.

ASOSIY QISM

Vohadagi muhim tadqiqotlar XX asrning ikkinchi yarmida Karim Shoniyozov tomonidan olib borilgan. O‘zbek etnografiya maktabining asoschisi Karim Shoniyozov qarluqlar, qipchoqlar, qang‘li va boshqa qabilalar haqida asarlar yozgan. Qimmatli asarlarining ba‘zilarida yuqorida sanab o‘tilgan xalqlarning Buxoro viloyatida ham yashaganligini aytib o‘tgan.

O.A Suxarevaning “Buxoro XIX asr oxiri- XX asr boshi” kitobida Buxoro shahri aholisining etnik tarkibiga tegishli qimmatli ma‘lumotlar yevropaliklar bilan tanishuvi orqali to‘planganligini aytib o‘tadi[10,119]. Antoniy Jenkinson va Filipp Yefremovlarning asarlarida voha aholisi to‘g‘risida ma‘lumot berilmagan bo‘lsa-da, manbalarda aholi so‘zlashuv tili haqida ma‘lumotlar mavjud. Antoniy Jenkinson Buxoro shahri aholisi fors-tojikzabon ekanligini aytadi va buning sababini forslar hukmronligiga borib taqalishini izohlab: “Buxoro vohasi qachonlardir forslar hukmronligi ostida bo‘lgan va hozir ular fors tilida so‘zlashadilar”,- deb yozadi[7, 182].

Aleksandr Byorns ham o‘zining “Buxoroga sayohat” asarida yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi. Tojiklar haqida shunday deydi: “Aholi Turkiston o‘lkasida Forslar davlati hukmronligi o‘rnatilgandan keyin ya‘ni xaliflar asri boshlangandan oldin fors tilida so‘zlashar edi” [1,370-371]. Bu ma‘lumotni u quyidagi fikrlar bilan asoslaydi: “Buxoroga qo‘limga tushgan fors tilidagi moddiy manbalardan birida aytilishicha, bu til iste‘molga arablarning o‘z xohishiga ko‘ra kiritilgan”.

¹ Osiyo xalqaro universiteti, Tarix va filologiya kafedrasida katta o‘qituvchisi



XIX asr boshlari va o'rtalarida Buxoroga kelgan sayyohlar voaha aholisining etnografiyasi va etnik tarkibi haqida ancha to'liq va batafsil ma'lumot berganlar. Shu bilan birga, Buxoro vohasi ko'p millatligi aytib o'tadilar. Buxoro aholisini rus mualliflari Meyndorf, N. Xanikov[11,55] va venger sharqshunosi A. Vamberilar tasniflashgan. Ular Buxoroning asosiy aholisini tojiklar tashkil qilishini aytishgan.

Ingliz missioneri Volfning ma'lumotlarida, amir Nasrulloxon hukmronligi davrida Buxoroda o'n mingdan ortiq yahudiylar istiqomat qilishgan. Buxoro yahudiylari tili yahudiy-tojik tili bo'lib, tojik tilining janubiy guruhiga kiradi[16]. Vitkevich shahar aholisining $\frac{3}{4}$ qismini tojiklar va qolgan $\frac{1}{4}$ qismini o'zbeklar qamrab olishini ta'kidlashgan.

A.Vamberi butun O'rta Osiyoni aylanib chiqib, tasvirlab bergan birinchi yevropalik sayohatchidir. U 1863-yilda O'rta Osiyoga sayohatini amalga oshirgan va ko'plab qimmatli ma'lumotlarga boy asarlar yozgan. A.Vamberi 1864-yilda yozgan "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" kitobining markazida Buxoro amirligini tavsiflash egallaydi. Buxoro qamrab olgan hududlar, unumdor yerlari, hukmronlik qilgan sulolalari, siyosiy va iqtisodiy vaziyatlar, aholining etnik tarkibi, ularning asosiy mashg'ulotlari va shu kabi qimmatli ma'lumotlar berilgan. "Buxoro xonligida asosan o'zbeklar va tojiklar, shuningdek, turkmanlar va Sirdaryo qozoqlari yashagan. Xonlikning shimolida dashtni egallagan qoraqalpoqlar ko'chmanchi va o'troq aholining kam ahamiyatli guruhlari mavjud edi." [17],- degan fikrlarni ilgari surgan. Bundan tashqari asarida voaha aholisining asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishi, qullarning mehnati, savdo- iqtisodiy aloqalari haqida ma'lumotlar bergan. A.Vamberi Buxoro haqida juda ko'p ma'lumotlar to'plagan va manba sifatida alohida kitob holiga keltirgan. 1873- yilda yozgan "Buxoro yoki Transaksoniya tarixi" kitobi ilmiy jihatdan katta ahamiyatga molik asardir. Kitobida u Buxoroning eng qadimgi davridan to XIX asr ikkinchi yarmigacha bo'lgan tarixini bayon qiladi. Asar ikki qismdan "Qadimgi yoki Movarounnahr tarixi" va "Yangi yoki Buxoro amirligi tarixi" iborat. Asardan biz Buxoro tarixiga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlarni bilib olamiz.

1835-yilda Eversman Buxoroni o'rgangan va o'zining "Orenburgdan Buxoroga sayohat" asarida Buxoroda savdo maqsadida hind, fors, arman, ruslarning kelishlarida xavfsizlik ta'minlanganligini, faqatgina ular urush vaqtida asir olinishini yozadi. Xonlikda qirg'iz va turkmanlar qullar savdosi bilan shug'ullanganlar. Buxoroda qullar orasida forslar soni 40 mingni tashkil qilgan. 500- 600 gacha ruslar qullikda yashaganlar. Chitralar, siyahpushlar, xezareylar va gruzinlar ham qullar qatlamini tashkil etgan. Ularga xo'jayinlari fors xotinlarini bergan. Xonlikda qullar ahvoli juda og'ir holda bo'lganligini asarida qayd etgan[18].

Graf Spasskiyning 1825-yilda chop etilgan asarida aholining deyarli hammasini, ya'ni , shahar aholisini tojiklar deb, ularni haqiqiy buxoroliklar sifatida bilgan[8, 304].

Buxoroda dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi mahalliy aholi- buxoriylar deb ataladigan, tatarlar qabilasidan tashqari, o'zbeklar, forslar, qirg'izlar, afg'onlar, lazginlar, arman va yahudiylar yashaydi. Yahudiylarning turmush tarzi, mashg'ulotlari, kiyimlari va urf-odatlariga alohida to'xtalib o'tgan. Buxoroga doimiy fors, hind, xitoy, rus, gruzin, arman va boshqa ko'chmanchi xalqlardan turli sabablar bilan keladiganlar ko'p bo'lgan[9,6]. Buxoroning savdo-iqtisodiy munosabatlari haqida alohida e'tibor qaratgan . U maqolasida "Poytaxt Buxoroda savdo qilish uchun Shikarpur va Sinddan kelgan 200 nafar hindlar, hamda Multon va Panjobdan kelgan 50 sikhlar yashaydilar". Bundan tashqari ko'chalar va uylar tuzulishi, bozorlar ko'rinishi, diniy e'tiqodlar, kiyinish tartiblari va boshqa muhim tarixiy ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

Ko'pgina Sharqshunos olimlar singari Buxoro shahri aholisining asosiy qismini tojiklar tashkil qilishini N. Xanikov ham aytgan. Uning "Buxoro xonligi tavsifi" asarida alohida Buxoro aholisi va etnik tarkibiga bag'ishlangan bobi mavjud. Asarda Buxoroning tub aholisi tojiklar bo'lganligi ta'kidlanadi. Keyinchalik arablarning voaha hududlarini egallashi, X asrda o'zbeklar hukmronligining o'rnatilishi, XII asrda mo'g'ullar bosqini, XIV asrda Temuriylar sulolasi va shu kabi turli qabilalarning voaha hududlariga kirib kelishi ularning etnik tarkibiga o'z ta'sirini o'tkazganligini yozadi. N. Xanikov kitobida har bir etnosga alohida ta'rif beradi. Voaha tub aholisi hisoblangan tojiklar, asosan, shaharda istiqomat qilishlari, yuz qiyofalari, kiyim- kechaklari, turmush xo'jaligi haqida ma'lumot beradi[18].



Arablar tojiklardan son jihatdan ko'p emas, ular o'zaro sof bo'lmagan arab tilida gaplashadilar, fe'l-atvori ijobiy xususiyatga ega va chorvachilik bilan kun kechirishadi. Vohada o'zbeklar son jihatdan ustun. Ular qirg'izlar kabi urug' va bo'linmalarga bo'lingan, shuningdek, o'zlarining oqsoqol va beklari mavjud. "Nasabnomayi- uzbekiya" kitobida o'zbek 97 urug' nomlari sanab o'tilgan va shulardan 28 tasi voha hududlarida yashaganligi aniqlangan[19]. Mang'it, xitoy, nayman, qipchoq, saroy, turkan, orol, buzachi, datura, yabu, jujut, qalmoq, qatag'on, uyg'ur, tatar va boshqalar urug'lar vohada yashab, etnik tarkibda o'z ahamiyatiga ega hisoblanadi. Voha o'zbeklarining tashqi ko'rinishi mo'g'ul qabilalarini eslatadi. Ko'chmanchi o'zbeklarning yashash tarzi qirg'izlarnikiga o'xshaydi. Buxoroda forslar ham yashagan, ular tashqi ko'rinishi bilan hammani o'ziga jalb qilgan. Xonlik muntazam qo'shinini tashkil qiluvchi 500 askardan 150 tasi forslardan iborat bo'lgan. Bu jihatlar forslar muhim ahamiyatga ega xalq ekanligidan dalolat beradi[12,71]. Yahudiylar ham xonlik aholisining kichik qismini tashkil qilsada, ammo Buxoro shahrining katta qismida yashaydilar. Ular uchun maxsus hovlilar ajratilgan va u yerdan boshqa joyda ko'cha olmaydilar. Ular boshlarini quyuq matodan tikilgan qalpoqcha bilan yopishlari kerak, kamarli xalat kiyishlari, keng ro'mollar bog'lashlari ta'qiqlangan. Shaharlarda otda va qilich taqib yurish ham man etilgan[13,72]. Buxoro vohasida yana bir etnos sifatida yashagan qabila bu lo'lilardir. Ularni jo'gi, myazyang va lo'lilar deb atashgan. Ular deyarli e'tiqodsiz hisoblanadi. Ular asosan, fol ochish, firibgarlik va shunga o'xshash ishlar orqali daromad topishadi[14,73-74]. N. Xanikovning bu asari XIX asr 40-yillaridagi Buxoroning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatlarini yoritibgina qolmay, etnografiya fani uchun ham eng muhim manbalardan hisoblanib, hozirgacha o'z qiymatini aslo yo'qotmagan.

Ammo, adabiyotlarda boshqacha qarashlar ham mavjud. Ya'ni buxoroliklarni o'zbeklarga tegishli degan qarashlar ilgari suriladi. A. Byorns o'z asarida "Buxoroda istiqomat qiluvchi o'zbeklarda forslarning qoni qo'shilganligi sababli turk yoki tatar xususiyatlarini payqash qiyin",[2,390] deya buxoroliklarni o'zbeklar sirasiga kiritadi. U o'z xo'jayinini "O'zbek savdogari maxsum haqida", ajdodlari Dashti Qipchoqdan kelib chiqqan va bu o'lkada 150 yildan buyon yashayotgan obro'li o'zbek oilasi bilan tanishuvi, bundan tashqari "turk go'zali" haqida yozib qoldiradi[3, 406]. A. Byorns "Buxoroga sayohat" asarida tojiklarga amirlikda sezilarli ahamiyatga ega, o'z tili va madaniyatini to'la saqlab qolgan, shuningdek, boshqaruvda ham ta'sir eta oladigan xalq deya ta'riflaydi. Ular mehnatkash, ko'p qismi o'qish-yozishni biladigan ya'ni aholining madaniyatli qatlamini tashkil qilishi haqida yozadi. U amirlik etnik tarkibi xususida to'xtalib, o'zbek va tojiklardan tashqari, turkman, arab, qalmoq, qirg'iz, qoraqalpoq, afg'on, lazgi, yahudiy, hind, lo'li va forslar yashashini aytgan. A. Byorns Buxorodagi hind va yahudiy millati vakillarini alohida tavsiflaydi. Kichkina to'rtburchak qalpoq va kamar o'rniga taqiladigan shnurlari Buxoro musulmonlaridan ularni ajratib turgan. Hindlar mahalliy aholidan qochqin qarashlari ya'ni har qanday aloqadan qochishlari bilan ajralib turgan. Ularda turli cheklovlar: ibodatxonalar qurish, butler qo'yish, yurishlar o'tkazish man qilingan. Yiliga to'rttdan sakkiz rupiygacha jiz'ya yoki so'rov solig'i to'lashgan, maxsus kiyimlar kiyib yurishgan. Musulmonlarni haqorat qilishga va yomon gapirishga jur'at etolmaganlar. Har qanday cheklovlarga qaramay, bag'rikenglik va farovonlik, sud va tergovda adolat ta'minlanganligi tufayli Buxoroda yashashgan[4, 406-408]. Hech qaysi hindni islom diniga e'tiqod qilishga majburlashmagan. Buxoroda hindlarning 300 ga yaqini o'z karvonsaroyida istiqomat qilgan. Ularning ko'pchiligi Sinddagi Shakarpurdan kelganligi to'g'risida qarashlar mavjud. Savdo va ishlab chiqarishda o'zbeklarni lol qoldirgan desak adashmagan bo'lamiz.

A. Byorns Buxoro yahudiylari to'g'risida Muso alayhissalomning izdoshlari bo'lib, o'zining g'ayri go'zalligi bilan ajralib turadi. Ularning kiyinishi ham farqlanadi, uchli shlyapa kiyishgan. Yahudiylar Forsning Mashhad shahridan kelgan va asosan matolar bo'yash bilan shug'ullanganlar. Buxoroda 4000 ga yaqin yahudiylar yashab[5, 406], yiliga ikki ming tilla jizya to'lashgan. Yangi Mahalla deb atalgan ikki choragida o'mashganlar. Tojik tilida so'zlashganlar va tojik madaniyati xususan, musiqa san'ati rivojiga salmoqli hissa qo'shishgan[6,370-371]. Aleksandr Byornsning 1848-yilda dunyo tuzini ko'rgan "Buxoroga sayohat" kitobi Buxoro tarixi va etnografiyasini o'rganishimizda aniq faktlari va qimmatli ma'lumotlari bilan ajralib turadi.

Buxoro shahar hayotini uzoq kuzatgan I.T. Poslavskiy XIX asrning 80- yillarida shahar aholisining katta qismini o'zbek va tojiklar ya'ni eroniylar tashkil qiladi. O'zbeklar kattaroq sharqiy qismda,



eroniylar esa g'arbiy qismda o'rnashib olishganligini yozadi. Buxoroda yahudiylar ko'p sonli millat hisoblandi. Ular shahar devorining janubiy qismiga tutashgan, Salli Xon darvozasidan Qorako'l darvozasigacha bo'lgan hududlarda joylashgan. Ular boy etnoslar sirasiga kiradi. Asosan savdo, tadbirkorlik, hunarmandchilik bilan shug'ullanib, eng yaxshi xususiy dachalar ularga tegishli.

XULOSA

Buxoro amaldorlarini ko'rganda otdan tushishlari shart, doimo ularni piyoda hoida ko'rishgan. Balki, yahudiylarga ot minish ta'qiqlangandir degan fikrlarni ilgari surgan. Podpolkovnik Poslavskiy to'plab-yozgan geografik, topografik va statistik tadqiqotlari orqali Buxoro tarixini o'rganishda o'z hissasini qo'shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Бёрнс А. Путешествие в Бухару. –С. 391.
2. Бёрнс А. Путешествие в Бухару, Т.III, М , 1848-1849. –С. 370-371.
3. Бёрнс А. Путешествие в Бухару. М., 1848. -С. 39
4. Бёрнс А. Путешествие в Бухару. М., 1848. -С.406.
5. Бёрнс А. Путешествие в Бухару.-С.406-408.
6. Бёрнс А. Путешествие в Бухару, Т.III, М , 1848-1849. –С. 370-371.
7. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558-1560 гг.–сб. “Англиские путешественники в Московском государстве в XVI в” б пер. с английского, М., 1932. –С. 182.
8. Новейшее описание Великой Бухарии.–“Азиатский вестник”. 1825, №5, стр. 304.
9. Новейшее описание Великой Бухарии//Азиатский вестник.-С. 1825.№ 1-6.
10. Сухарева О.А. Бухара XIX - начало XX века. Позднефеодальный город и его население. Москва. 1966.-С.119
11. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. С-55.
12. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург.1843. –С. 71.
13. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург. 1843. –С. 72.
14. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. Санкт-Петербург. 1843. -С. 73-74.
15. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. С-55.
16. Uz.m.wikipedia.org.Buxoro yahudiylari.
17. <https://fayllar.org>. Н.Vamberi va uning “O'rta Osiyo bo'yulab sayohat” asari. Kirish 1-bob
18. <https://rus-turk.livejournal.com/25354.html>. Нравы и обычаи Бухары. 1820. Выдержки из “Путешествия из Оренбурга в Бухару” Е. К. Мейендорфа, а также из одноименной книги Э. А. Эверсмана. Ранее размещался другой отрывок.
19. <https://www.academia.edu>. Бурнашев Г. Путешествие от Сибирской линии до города Бухары в 1794 и обратно в 1795 году / Сибирский вестник. Ч.2, 3, 4. –С. 1818, 1819.
20. То'rayev A. I. Buxoro vohasiga turkmanlarning ko'chishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 134-139.
21. Ismailovich T. A. Migration of Turkmen Tribes to Zarafshan Oasis: History and Analysis //Central Asian Journal of Social Sciences and History. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 47-52.
22. То'rayev A. O'ZBEKLARNING CHORJO'YDAGI HAYOT YO'LLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 36. – №. 36.



23. To'rayev A. БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪАНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
24. Тўраев А. И. БУХОРОДАГИ ТУРКМАНЛАРИНИНГ АЪАНАВИЙ ТУРАР ЖОЙЛАРИ ВА УНДАГИ ЗАМОНАВИЙ ЎЗГАРИШЛАР: Тураев Анвар Исмаилович, Кафедра “Всеобщей истории” Бухарского государственного университета старший преподаватель //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2023. – №. 1. – С. 7-13.
25. To'rayev A. English Buxorodagi turkmanlarning ananaviy turar joylari va undagi zamonaviy ozgarishlar //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 35. – №. 35.
26. To'rayev A. BUXORO TURKMANLARI BILAN BOG 'LIQ JOY NOMLARI TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 14. – №. 14.
27. To'Rayev A. I., Hayotov F. U. Buxoro vohasi aholisining islom dinini qabul qilishi //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 10. – С. 499-504.
28. To'Rayev A. I. BUXORO VOHASIDA YASHAB KELGAN TURKMANLAR HAYOTIDA CHORVACHILIKNING O'RNI //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 1. – С. 1165-1170.
29. To'rayev A. А ЎҒУЗ ҚАБИЛА ВА УРУҒЛАРИНИНГ ТУРКМАН ХАЛҚИНИ ШАКЛЛАНИШИДАГИ ЎРНИ: Хорijiymaqola //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 6. – №. 2.

